

**TAQDIM ETISH MASALALARI**

***Zoirov Sherzod Abdisodik o'g'li***

***ANNOTATSIYA :*** Ushbu tezisda audit to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilib so'ng qulaylik maqsadida mavzuning bayoni keltirilgan. Shuningdek ichki audit tekshiruvlariga doir yangilik va qo'shimchalar ham mavjud.

***KALIT SO'ZLAR:*** audit, buxgalteriya, ekspertiza, auditor, ichki audit, menejer.

**KIRISH**

Angliyada audit- deganda iqtisodiy sub'yektlarning moliyaviy hisobotlarni tekshirish va bu to'g'risida uzining mustaqil fikrini bildirish tushuniladi. Buxgalteriya hisobi buyicha amerika assotsiatsiyasining fikricha «audit» - bu iqtisodiy voqea va xodisalar to'g'risidagi ob'yektiv ma'lumotlarni to'plash va baholi tizim jarayonidir. O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunida va Auditorlik faoliyati milliy standartining umumiy qoidalarida ta'riflanganidek, audit - muayyan vaqolatlar berilgan shaxslar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy hisobotlarining to'g'riliqini, ular amalga oshirgan moliyaviy xo'jalik jarayonlari O'zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga qay darajada muvofiqligini, mukammalligini va asoslanganligini, buxgalteriya hisob kitobi va boshqa moliyaviy hisobotlar yuritishga quyiladigan talablarga hamda uzga hujjatlar talablariga to'g'ri kelishligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan moliya hujjatlarining ekspertizasi va tahlilidir. Audit, shuningdek maslaxatni (konsalting) mijoz bilan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishni o`z ichiga oladi. Auditorbelgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan va auditorlarning kasb reyestriga kiritilgan mutaxasisdir. Audit-bu korxona moliyaviy hisobotlarini mustaqil ekspertiza qilishdir. Bunda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini, saqlanishini, xo'jalik moliyaviy operatsiyalarining O'zbekiston

qonunlariga; bo‘ysunishini, korxonaning moliyaviy hisobotlarda to‘liq va aniq aks ettirilganligini tekshiriladi. Ekspertiza oxirida auditorlik xulosasi tuziladi. Auditorlik faoliyati bu tadbirkorlik faoliyati bo‘lib, u iqtisodiy sub'yeckning moliyaviy hisobotlarini, to‘lov hisob hujjatlarini soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarni mustaqil tekshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bundan tashqari auditorlik firmalari quyidagi faoliyatni amalga oshiradi: buxgalteriya hisobotlari va daromadlari to‘g’risidagi deklaratsiyalarini tuzish; iqtisodiy sub'yeckning aktivlari va passivlarini baholash; moliya, soliq bank va boshqa xo‘jalik qonunchiligi buyicha maslaxatlar berish; kadrlarni qayta o‘qitish. Auditor faoliyatiga bog‘liq bir qancha ma'lum qoidalar mavjud: xo‘jalik sub'yecki auditorlarni erkin tanlashi; auditor va mijoz o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlар auditorga mijozni o‘zi tanlash imkoniyatini beradi, ya‘ni u davlat organlarining har qanday ko‘rsatmalaridan mustaqil bo‘lishi; ko‘rsatilgan kamchiliklarni yo‘qotmasdan turib, auditorlik xulosasini mijozga bermaslik; mijoz bilan qarindoshlik va boshqa munosabatlari bo‘lganda auditorlik tekshiruvini amalga oshirish mumkin emasligi; auditorlarga va auditor firmalariga qonun tomonidan ruxsat berilgan audit va maslaxat xizmatlaridan tashqari bo‘lgan xo‘jalik, tijorat va moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanish ta‘qiqlanadi. Auditning maqsadi - qonun tomonidan belgilangan aniq vazifalarini bajarish, auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish, mijoz va auditor o‘rtasidagi shartnomaviy majburiyatlarni bajarishdir. Auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi-bu iqtisodiy sub'yecklarni buxgalteriya hisobotlarining xaqiqiyligini aniqlash va ular tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy xo‘jalik operatsiyalarini me'yoriy hujjatlarga to‘g’ri kelishini tekshirishdan iborat. Auditor moliyaviy hisobotlarining to‘g’ri tuzilganligi hamda quyidagilarni tekshirashdi: hisobotlarning aniqligini ta‘kidlash yoki ularning noaniqligi to‘g’risida maslaxat berish; buxgalteriya hisobida qarzlar, daromadlar va korxona moliyaviy natijalarini tekshirilayotgan davrda to‘liq aniq va haqiqiy ko‘rsatilganligini tekshirish; buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzishni tartibga soluvchi qoidalarga, me'yoriy hujjatlarga hamda qonunchilikka amal qilinganligini, shuningdek aktivlar, majburiyatlar va o‘z kapitalini baholash usullariga rioya

etilganligini nazorat qilish; o`z asosiy va aylanma mablag'larini, moliyaviy zaxiralarini hamda qarz mablag'laridan yaxshiroq foydalanish bo'yicha takliflar berishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda korxonalarda ichki audit tekshiruvini samarali o'tkazish tartibini takomillashtirishning jihatlari muhimligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Ichki audit tekshiruvi natijalarini umumlashitirish va baholash tartibi hamda ichki audit tekshiruvining samaradorligini baholash va uni samarasini oshirish yo'nalishlari haqida fikr yuritilgan. Aytish mumkinki, ichki audit faoliyati samaradorligini oshirish, korxonada ichki audit xizmatini o'tkazish uchun korxona boshliqlari va menejerlari tomonidan bir yilda kamida bir marta ichki audit tekshiruvini o'tkazishi – ichki auditor xizmat faoliyatini takomillashtirish uchun zaxiralarni aniqlashdan iboratdir. Tekshiruv natijalarini tekshiruv yakunida oraliq va umumiyligida auditorlik hisobotlarida umumlashtirilib, ularda xato va kamchiliklarning mazmuni va paydo bo'lish sabablari tahlili hamda ularni kelgusida takrorlanmasligi uchun amaliy tavsiyalar jamlanma hisobotda aks ettirilishi lozimligi ko'rsatib berildi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

**1.** O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Tijoratbanklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi qonunhujjatlari to'plami, 2011 y., 20-21-son, 216-modda; 2016 y., 16-son, 161-modda).//www.lex.uz

**2.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish" chora-tadbirlarto'g'risida" 04.04.2017 yildagi PQ-2868-sonli Qarori.

**3.** "Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'rsida Nizom" Adliya vazirligida 20.05.2010 yilda 949-6 -son bilan ro'yxatga olingan.

**4.** "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy xujjaligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom", Adliya vazirligidan 2000yil. 5 pareldi 916 –son bilan ro'yxatga olingan.